

---

## "Ipak yo'li" mahallasida bayram shodiyonalari o'tkazildi

Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan Farg'ona shahridagi barcha mahalla fuqarolar yig'inlari, korxonalar va tashkilotlar hamda ta'lim muassasalarida madaniy tadbirlar o'tkazilmoqda.

"Ipak yo'li" mahalla fuqarolar yig'inida o'tkazilgan bayram shodiyonalari ham yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Bayram tadbirida Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov, sektor rahbarlari va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi.

Tadbir davomida turli sport musobaqalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan yoshlar esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.

Dorvozlar va polvonlarning chiqishlari tadbirga bayramona kayfiyat ulashdi. Xushovoz xonandalar tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar, iste'dodli yoshlarning chiqishlari ham barchaga birdek manzur bo'ldi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-16 11:40:25